

## O‘ZBEK TALABA YOSHLARI NUTQIDA SLENGLAR VA UNING ADABIY TILGA TA’SIRI

Mamitova Muhtarama

O‘zMU talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi sleng tushunchasiga berilgan ta’rif, uning yondosh hodisalardan farqi, o‘zbek talaba yoshidagi qatlam nutqida ishlatilishi hamda uning adabiy tilga ta’siri haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Sleng, argo, jargon, sotsiolekt, adabiy til.

**Annotation:** This thesis discusses the definition of the concept of slang, its difference from related phenomena, its study and use in the speech of Uzbek students, and its impact on the literary language.

**Keywords:** slang, argo, jargon, sociolect, literary language.

**Аннотация:** В данной тезис рассматривается определение понятия сленг, его отличие от родственных явлений, его изучение и использование речи узбекских студентов, а также его влияние на литературный язык.

**Ключевые слова:** сленг, argo, жаргон, социолект, литературный язык.

Bugungi kunda mulohaza vositasi hisoblangan nutq, til xususiyatlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda milliy til xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishga e’tibor yuqori darajada. Tilning mavjudlik shakllari uning tarkibiy tuzilishi va inson jamoasida uning faoliyati aniq shakllar sifatida tushuniladi. Ushbu shakllar bir-biri bilan muayyan, ba’zan juda murakkab munosabatlarda, turli xil o‘zgaruvchanlik, barqarorlik va kodifikatsiya darajalariga ega bo‘ladi. Bunda tilning qo‘shimcha tavsiflariga ko‘ra, kichik tizim (argo, jargon, sleng)lar, xususan, ijtimoiy dialektlar haqidagi ma’lumotni o‘z ichiga oladi.

Sleng (*ing. slang*) — bu ma’lum bir yosh (asosan, 14-30) toifasidagi guruhlarda ishlatiladigan va faqatgina shu guruh vakillarigagina tushunarli bo‘lgan so‘zlar to‘plami yoki mavjud so‘zlarning yangi ma’nolari hisoblanadi.

“Sleng” atamasi leksikologiyada birmuncha kechroq paydo bo‘ldi. Garchi biz slengni leksikologiyaga xos tushuncha deb bilsak-da, aslida, sleng va unga yondosh hodisalar tilshunoslikning yangi yo‘nalishi hisoblangan sotsiolingvistikada o‘rganiladi. Chunki sleng bevosita jamiyat bilan chambarchas bog‘liqdir. Og‘zaki nutqni o‘rganish jarayonida “jargon” va “argo” tushunchalari, tarixiy nuqtayi nazaridan, undan foydalanuvchilar guruhining chegaralanganligi va leksik birliklar semantikasining ajratilganligini ko‘ramiz. Shu bilan bir vaqtda og‘zaki nutq til muhiti normalaridan farqli va juda ko‘p sonli kishilarni birlashtiruvchi muhit sifatida mavjudligi ham ma’lum bo‘ldi. Aynan shu tushuncha sleng nomini oldi. Sleng deganda biz odatda og‘zaki nutq turlaridan birini tushunamiz. U jamiyat tomonidan norasmiy (“maishiy”, “betakalluf”, “ishonchli”) nutq shakli sifatida baholanadi. Sleng o‘z navbatida argo va jargonga xos birliklarni hamda ularning ma’nolarini metaforik jihatdan o‘zgartirib va kengaytirib o‘zlashtirishi mumkin. Bu yerda nutqning ekspressiv, so‘z o‘yini va zamonaviy neologizmlarga boy sun’iy shakllantirilgan turi haqida gap bormoqda [Usmonova Sh., 2014]. *Sleng* so‘zining qachon paydo bo‘lgani noma’lum, biroq u ilk bor yozma ravishda XVIII asrda Angliyada qayd qilingan va o‘sha davrda “haqorat” ma’nosini anglatgan. 1850-yillarga kelib, mazkur termin

“noqonuniy” oddiy leksikaning ifodasi sifatida keng qo‘llanila boshladi. Ayni paytda uning jamiyatning quyi tabaqalari qo‘llaydigan *slang-lingo* va “rang-barang” aholi foydalanadigan *argot* singari sinonimlari ham paydo bo‘lgan [Partridge E., 1979].

**Sleng** – muayyan kasb egalari yoki ijtimoiy guruhlarining og‘zaki nutqida qo‘llaniladigan, emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘z va iboralar. Slenglar ko‘proq yoshlarning nutqida uchraydi. Masalan, *olmaxon* “o‘zini oladigan, nozlanadigan odam”, *g‘isht* “xunuk”, *sindirdi* “lol qoldirdi” va h.k.

Sleng – jonli, harakatdagi til shakli bo‘lib, u mamlakat va jamiyat hayotidagi har qanday o‘zgarishdan ta’sirlanadi. Sleng qo‘llanish doirasiga ko‘ra: hammaga ma’lum va barcha tomonidan qo‘llanuvchi *umumiy sleng* (general slang) va muayyan guruhlariga ma’lum bo‘lgan, tor doirada qo‘llanuvchi *xususiy sleng* (special slang)ga ajraladi.

Slenglarning ko‘p so‘zlari va iboralari (ayniqsa, ularning dastlabki shakllanishi davrida) keng ommaga tushunarsiz bo‘ladi. Chunki aksariyat slenglar ko‘chma ma’noda ishlatiladi. Shuningdek, slengizmlar ko‘pincha chet tillardan, ularning dialektlaridan va jargonlaridan o‘zlashtirilgan bo‘ladi. Masalan, “tusovka”, “telejka”, “tachka”, “stukach” rus tilidan, “yuzer” (user), “chat” (chat), ingliz tilidan o‘zlashtirilgan.

Jargonlar (fransuzcha jargon) aslida “yuqori tabaqa” kishilari nutqiga xos bo‘lib, tor doirada qo‘llanadigan “sinfy dialektlar”, ular ommaga tushunarsiz va umumxalq tiliga yotdir. Jargonlar kasbiy nuqayi nazardan ham guruhlanishi mumkin. Kasbiy jargonlarning professional so‘zlardan farqli jihati – ular faqatgina shu soha vakillarigagina tushunarli bo‘ladi. Professional terminlar barcha uchun tushunarli, lug‘atlardan o‘rin egallaganligi bilan ulardan farq qiladi. Jargonlar o‘zbek tilidagi lug‘atlarga deyarli kiritilmagan. Ular asosan jonli nutqda “yashaydi”. Masalan, *oq* (aroq), *qizil* (vino) – ichuvchilar nutqiga xos; *strelka* (uchrashuv) yoshlarning nutqida; *ko‘k*, *ko‘kat* (AQSH dollari), *dodasi* (biron narsaning zo‘ri) – ko‘proq bozorchilarning nutqida qo‘llaniladi.

Argo (argot) esa o‘ta maxfiy guruhlar foydalanadigan sirli til hisoblanadi. Masalan, *o‘g‘rilar argosi*, *artistlar argosi*, *jinoyatchilar argosi* va h.k

Umuman, argo, jargon va sleng — sotsiolektning turlari hisoblanadi. Mazkur til shakllarining har biridagi o‘ziga xos xususiyat u yoki bu guruhlarining kasbiy alohidaligi yoki ularning boshqa jamoalardan ijtimoiy cheklanganligiga bog‘liqdir. Kompyuter jargoni (sleng) kasbiy cheklangan subkodga, o‘g‘rilar argosi, talabalar slengi ijtimoiy cheklangan subkodlarga misol bo‘ladi. Ba‘zan guruh ham kasbiy, ham ijtimoiy alohidalik kasb etadi. Bunday guruhning nutqi ham kasbiy, ham ijtimoiy jargonning xususiyatlariga ega. Masalan, askarlar jargonini olsak, binobarin, harbiylik kasb sanaladi, bu kasb bilan shug‘ullanuvchilar esa boshqa jamoalardan alohida, o‘z holicha yashaydi [Usmonova Sh., 2014].

Yoshlar o‘z tillari orqali so‘z boyliklarini boyitib boradi. Ular kattalardan ajralib turish va biror bir guruhga mansubligini namoyish qilishni istaydilar. Har bir avlod o‘zining alohida yoshlar tiliga ega bo‘ladi. So‘zlarni yaratish va ma’nolarni o‘zgartirish yoshlar tiliga xosdir. Yoshlar tili doim yoshlar madaniyatining bir qismi bo‘lib kelgan.

Hozirda birorta tadqiqot ishida slenglarning yoshlar nutqining buzilishiga olib kelayotgan omillar va ularning adabiy tilga ta’siri haqidagi tadqiqotlar u darajada to‘liq o‘rganilmayapti. Yoshlarning og‘zaki va yozma nutqida muayyan qolipga solingan nutq vositalari bilan cheklanib qolayotgani, adabiy til imkoniyatlariga qo‘pol ravishda turli omillar natijasida buzilayotganini

kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, yoshlarning o‘zaro shaxsiy yozishmalarida harflarni noto‘g‘ri ishlatishlarida ham bu omilning bilvosita ta‘siri bor. Masalan,

W — Sh: “Wahardan keldim”.

4 — Ch: “4anqog‘imni qondirdim”.

6 — O‘: “6zim gaplashdim”.

Yoshlar o‘z tillari orqali so‘z boyliklarini boyitib boradi. Ular kattalardan ajralib turish va biror bir guruhga mansubligini namoyish qilishni istaydilar. Har bir avlod o‘zining alohida yoshlar tiliga ega bo‘ladi.

Qaysi bir davr bo‘lmasin, tilning ayrim leksikasi o‘zgaradi, nisbatan yoshlar nutqi tez evolyutsiyaga uchraydi. Ma‘lum bir davr, yoki aniqrog‘i ma‘lum bir faslda foydalaniladigan so‘zlar yoki iboralar keyingi yilda ishlatilmasligi mumkin, ammo tushiniladi. Bunga sabab yoshlar madaniyatining yangi tuzilmalari tez degradatsiyaga uchraydi va yangi tushunchalar bilan almashinadi. Ba‘zi olimlar bu hodisani iste‘mol yoki lingvistik talab deb atashadi.

Bulardan ko‘rinib turibdiki, so‘z boyligi qanchalik boy bo‘lsa, shaxs ham shunchalik mukammal bo‘ladi. Gapira turib rasmiy uslubdan oddiy kundalik so‘zlashuv uslubiga o‘tish bu odatiy hol. Bu holat ko‘pincha ikki tilli jamiyatlarda sodir bo‘ladi. Rasmiy uslub ko‘pincha rasmiy majlislarda, rasmiy hujjatlarda ishlatiladi, shu bilan birga kundalik so‘zlashuv uslubi esa har qanday turdagi norasmiy muloqotlarda ishlatiladi.

Biz o‘z izlanishlarimizda talabalar nutqidagi ayrim slenglarni jamlab, ularning o‘ziga xosliklarini tahlilga tortdik:

	So‘z	Izoh	Foydalanuvchi yoshi	Maktab Universitet Ko‘cha	Viloyat
1	Kalxoz	Kiyinishi o‘xshaganlar	18-25	Ko‘cha	Toshkent asosan
2	Tanka	Imtihonlarda orqasida turib hal qilib beruvchi inson	16-30	Universitet	Deyarli barcha viloyatlar
3	Quloq	Agent	18-30	Ko‘cha	Samarqand Toshkent
4	Sindirdi	Lol qoldirdi	16-22	Ko‘cha	Toshkent
5	Uxlatib ketti	Aldadi	18-25	Ko‘cha	Toshkent Samarqand
6	Kalla qo‘ydi	Qovun tushirish, biror narsani xato aytish	18-22	Ko‘cha	Toshkent
7	Tepdi	1. Esiga keldi 2. Tushundi	18-22	Ko‘cha Maktab	Samarqand Toshkent
8	Bozorini bersin	Omadini bersin	18-22	Ko‘cha	Toshkent
9	Qarg‘a	1. Har joyda paydo bo‘lib qoladigan o‘qituvchi 2. Ovozi xunuk	14-18	Maktab	Samarqand Qashqadaryo
10	Imperator	Maktabdagi eng qattiqqo‘l o‘qituvchi	14-18	Maktab	Samarqand
11	Ramkangdan chiqma	O‘z o‘rningni bil	18-22	Ko‘cha	Samarqand Toshkent Navoiy

12	Pingvin	Sekin yuradigan do'mboq odamlarga nisbatan	18-22	Ko'cha	Samarqand Navoiy
13	Xalta	Tahlil qilishda faqat bir xil narsadan foydalanish,tushuncha o'smasligi	18-22	Ko'cha	Samarqand Toshkent
14	G'ijim	1. Xunuk; 2. Nimjon 3. Lallayhan bola	16-22	Ko'cha Maktab Universitet	Samarqand Toshkent Toshkent viloyati
15	G'isht	Xunuk	16-22	Ko'cha Maktab Universitet	Samarqand Toshkent
16	Bo'tancha	Semiz,bo'yi kalta o'qituvchi	14-18	Maktab	Samarqand
17	Radar	Hamma narsani ko'rib qoluvchi odam	14-22	Ko'cha Maktab Universitet	Samqarqand Toshkent
18	Vapoyiv	Xarakterini yomon tutuvchilar	16-24	Ko'cha	Navoiy
19	Sirqov	Har doim qovun tushiradigan odam	16-24	Ko'cha	Navoiy
20	Krisa	Hamma gaplarni sotib qo'yadiganlarga nisbatan	16-24	Ko'cha	Toshkent
21	Panda	Do'mboq tanishlarga nisbatan	16-22	Ko'cha	Toshkent
22	Sovmal	Hech qanday ishni uddalay olmaydiganlarga nisbatan	16-22	Ko'cha	Navoiy Jizzax

Yuqoridagi jadvalda jami 400dan ortiq slenglarning ayrimlarini namuna sifatida keltirdik. Ba'zan kishilar axborot uzatishda ayrim dor doirada ma'lumotning mahfiyligini saqlash uchun sotsiolektlardan foydalanishadi. Yoshlar, xususan, talabalar nutqiga slenglar o'zlashuvi ham aynan mana shu maqsad ortida yuzaga keladi. Ular faqatgina ma'lum bir guruh orasida o'zaro bir-birlarini tushunish uchungina slenglardan foydalanishadi va bu slenglar tabiiy ravishda ularning nutqiga o'zlashadi. Talabar nutqida, asosan, ta'lim, universitet hayoti va shaxsiy munosabatlarga oid slenglar tashkil qiladi. Chunki ularning hayot tarzining aksariyat qismi shu bilan bog'liq. Yoshlar borliqni o'zining subyektiv dunyoqarashi bilan baholaydilar. Shuning uchun ham so'zlashuv nutqini xususiylashtirishga, soddalashtirishga, qisqartirishga harakat qiladilar. Yoshlar o'zini jamiyatdagi o'rnini ko'rsatish, "kattalar" dunyosidan ajratish maqsadida o'zlarini individual qilib ko'rsatishga intiladilar.

Yoshlar nutqini slenglar darajasida o'rganish amaliy tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Zotan bugungi kompyuter va texnologiyalar, ayniqsa sun'iy intellekt juda tez rivojlanayotgan bir mahalda kishilar o'rtasidagi pragmatik muloqotni tahlil qilish uchun bizga mana shu kabi ma'lumotlar bazasi kerak bo'ladi [Abdurakhmonova N., 2023].

Til nutqiy muloqot vositasi sifatida kishilarning dunyoqarashi, hissiyoti, hayotiy uslubi, qiziqishlarini o'zida mujassam etadi. Yoshlarning nutqidagi slenglar kelgusida tilning o'zgarish evolyutsiyasini muayyan darajada o'rganish uchun obyekt bo'lib xizmat qilishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mengliev, D. B., Barakhnin, V. B., Eshkulov, M., Palvanov, B., Abdurakhmonova, N., & Khamraeva, S. (2023). Dictionary-based medical text analysis in Uzbek: overcoming the low-resource challenge. In Proceedings of the 2023 IEEE Ural-Siberian Conference on Computational Technologies in Cognitive Science, Genomics and Biomedicine (CSGB) (pp. 85-89).
2. Abdurakhmonova, N., Alisher, I., & Sayfulleyeva, R. (2022, September). MorphUz: Morphological Analyzer for the Uzbek Language. In 2022 7th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK) (pp. 61-66). IEEE.
3. Abdurakhmonova, N. (2016). The bases of automatic morphological analysis for machine translation. *Izvestiya Kyrgyzskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta*, 2(38), 12-7.
4. Sulevmanov, D., Gatiatullin, A., Prokopyev, N., & Abdurakhmonova, N. (2020, November). Turkic morpheme web portal as a platform for turkology research. In 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-5). IEEE.
5. Abduraxmonova, N., & Abduvaxobov, G. I. (2021). O 'quv lug 'atini tuzishning nazariy metodologik asoslari. *СЎЗ САЊЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ*, 103.
6. Mengliev, D., Barakhnin, V., Eshkulov, M., Palvanov, B., Abdurakhmonova, N., & Khamraeva, S. (2023, September). Dictionary-based medical text analysis in Uzbek: overcoming the low-resource challenge. In 2023 IEEE Ural-Siberian Conference on Computational Technologies in Cognitive Science, Genomics and Biomedicine (CSGB) (pp. 85-89). IEEE.
7. Abduraxmonova, N. Z. (2018). Linguistic support of the program for translating English texts into Uzbek (on the example of simple sentences): Doctor of Philosophy (PhD) il dis. aftoref.
8. Xolmanova Z. *Tilshunoslik nazariyasi [Matn] : darslik / Zulxumor Xolmanova – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – 256 b.*
9. Hojiyev A. *Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.-T., 2002.-B.37. 18 Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.- P.17.*

## TIL VA MADANIYAT TADQIQI MASALALARI

**Topildiyeva Feruza Raximjonovna**

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti  
Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası oʻqituvchisi

**Murodova Dildora Rustam qizi**

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti 4- kurs talabasi

**Annotasiya:** Ushbu maqolada lingvokulturologiya haqida, til va madaniyat tadqiqi masalalari toʻgrisida maʼlumot berilgan, Farida Afroʻz sheʼriyati misolida yoritilgan. Bundan tashqari, ilmiy maqolada lingvokulturologik birliklar, muqobilsiz leksika haqida maʼlumotlar keltirilgan.

**Kalit soʻzlar:** lingvokulturologiya, Farida Afroʻz sheʼriyatida leksika, til va madaniyat, soʻz, zamonaviy lingvistika, tilning leksik tizimi, etnolingvistika, paremiologik fond, frazeologik birliklar, maqol, matal.

**Abstract:** This article provides information about linguo-cultural studies, issues of language and culture research, and covers the example of Farida Afroz's poetry. In addition, the scientific article provides information about linguocultural units, non-alternative lexicon.

**Keywords:** linguoculturology, lexicon, language and culture in the poetry of Farida Afroz, word, modern linguistics, lexical system of the language, ethnolinguistics, paremiological units, phraseological units, proverb

**Аннотация:** В статье представлены сведения о лингвокультурологических исследованиях, вопросах исследования языка и культуры, а также рассмотрены на примере поэзии Фариды Афроз. Кроме того, в научной статье представлена информация о лингвокультурных единицах, безальтернативной лексике.

**Ключевые слова:** лингвокультурология, лексика, язык и культура в поэзии Фариды Афроз, слово, современное языкознание, лексическая система языка, этнолингвистика, паремиологические единицы, фразеологизмы, пословица.

Bugungi kunga, umuman, tilshunoslikda soʻzdan foydalanish, uni imkoniyatlar doirasida qoʻllash, tinglovchiga yetkazib berish va yangiliklarni qabul qilishning turli usullari mavjud boʻlgan, ana shu usullardan tilshunoslikda keng foydalanilgan, ularning yangi turlari shakllangan va hozirgacha rivojlanib kelmoqda. Bu bevosita zamonaviy tilshunoslik bilan uzviy bogʻliq. Odatda, soʻz maʼnosining uslubiy nozikliklarini anglash, badiiy tasvirni yaratishdagi oʻrnini koʻrsatish borasidagi fikrlar bugungi kun uchun ham ahamiyatini yoʻqotmagan, balki, dolzarb masala boʻlib, bu lingvokulturologiya, til va madaniyat tadqiqi masalasi, tilshunoslar eʼtiborida turibdi. Asosiysi, har qanday ijodkorning asarida, qoʻllagan leksikasida til va madaniyat tushunchalarini beqiyos oʻrni bor demoqchiman. Odatda, madaniyatshunoslik [kulturologiya] insonni ijtimoiy hayotdagi uning tabiati, jamiyat, etimologiya tarix, adabiyot, sanʼat va boshqa sohalarga koʻra oʻzini tadqiq etsa, tilshunoslik tilda olam lisoniy manzarasini mental modellar koʻrinishida aks etadigan va qayd qilinadigan inson dunyoqarashini oʻrganadi. Bundan maqsad

ijodkor ko'zda tutilgan voqea hodisani tinglovchiga yetkazib berish jarayonida, so'z qo'llash mahorati bilan estetik jalb qilishga erishishda til va madaniyat masalalari uyg'unligiga e'tibor qaratadi. Shunday ekan, so'z ijodning asosi, so'z mehribon, so'z malham, so'z og'u. Demak, so'z zamirida chuqur badiiy ta'sir, mohiyat va mazmun yotadi. L.N.Tolstoy "Shunday so'z izlangki, u insonlarni birlashtirsin" degan ibratli fikrni bejizga aytmagan. Odatda to'g'ri so'zlash, fikrlash, turmushni anglash keng ma'noda madaniyat belgisi sanaladi. Shu bois, so'z qudrati, mohiyati, xususiyati va sahovatini anglamaydigan ijodkor bo'lmas kerak, o'z ijodiy faoliyatida lingvokulturologiyaga murojaat etmagan...Lingvokulturologiya XX asrning 90-yillarida paydo bo'lgan, lotincha "lingua" – "til", "cultum" – "hurmat qilish", "ta'zim qilish"; yunoncha "ilm, fan" ma'nolarini anglatadi" [Shoira Usmanova, 2014:6]. Tilshunoslikda madaniyat va tilning o'zaro aloqasini, ta'sirini, tilda o'z aksini topgan xalq madaniyatining ko'rinishlarini tadqiq etadigan yangi soha sanaladi, zamonaviy tilshunoslikning markazida tilning leksik tizimidagi madaniyat shakllari; urf-odatlar, udumlar, bilan o'zaro munosabatdagi turli jarayonlar, ijod mahsuli ko'rinishlarida namoyon bo'ladi va o'ziga xos tarzda ifoda etiladi.

Bu esa ijodda til va madaniyat tushunchalarini uyg'unlashtirib qo'llash mahoratini shakllantiradi. Darhaqiqat, til – inson taqdirini shakllantiradi, uni ro'yobga chiqaradi tilning sofliqi, uning boyib borishini ta'minlaydi va qo'llanish iste'mol doirasini kengaytiradi, milliy o'zlikni anglash, sodda chapani so'zlardan obrazli tarzda samimiylik, yoki alamzadalikni beg'araz ifoda etadi, bu ijodkorning so'z qo'llashda lingvokulturologik mahorati sanaladi. Shirinsuxanlik, gapni topib va joyida gapirish olijanoblik alomatidir. Umuman olganda, insonda qalb ham, chexra ham, til ham dilbar bo'lmog'i kerak. Xalqimizda "O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir" degan maqol bor. Bu dono fikr bizni doimo sergaklikka, ehtiyotkorlikka, so'z qo'llashda ma'no nozikliklariga e'tibor berishga yo'naltiradi, madaniyatli, ramziy, obrazli, metaforik ma'no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib, poetik, prozaik matnlarda frazeologizmlar, jargonlar, realiyalar, lakunalar sifatida ifoda etilgan til birliklaridan o'rinli foydalanishni taqozo etadi. Bunday muayyan lingvokulturologik birlik bir paytning o'zida bir qancha semiotik tizimlarga tegishli bo'lishi mumkin, ma'lum bir odat frazeologizmga, maqolga, matalga, realiyaga aylanishi mumkin. Umuman olganda, muqobilsiz leksika va lakunalar o'zbek madaniyatining belgilari hisoblanadi. Masalan: do'ppi, qiyiq, shokila, polov, dehqon, ya'ni do'ppisi tor kelmoq, do'ppisini osmonga otmoq kabi muqobilsiz leksika va frazeologizmlarni boshqa tilga tarjima qilib berish emas, balki o'z ona tilisida chiroyli badiiy asoslash orqali yetkazib berishni taqozo etadi. Lingvokulturologiya V.N. Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologizm maktabi olimlari (Yu.S.Stepanov, V.V.Vorobyov, V.A.Maslova va boshqalar) tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar asosida paydo bo'lgan. Lingvokulturologiya til tadqiqining yangi sohasi, muloqotda bo'lgan til, madaniyat va tilning o'zaro aloqasini tilda o'z aksini topgan xalq madaniyatining korinishlarini tadqiq etadi. Lingvokulturologiya songgi o'n yilliklardan buyon o'rganilib rivojlanib kelmoqda Lingvokulturologiya o'z navbatida lingvistika, madaniyatshunoslik, etnopsixolingvistika, lingvomamlakatshunoslik, etnolingvistika va sotsiolingvistika bilan chambarchas bog'liq. XXI asr boshlariga kelib, lingvokulturologiya jahon tilshunosligidagi yetakchi yo'nalishga aylandi. U xalq madaniyatining barcha ko'rinishlarini: mif, afsona, urf-odat, muomala, an'ana, udum, taomil, ramzlar va boshqalarni tadqiq etadi. Mazkur konseptlar madaniyatga taalluqli bo'lib, ular tilda maishiy taomil muomalasi shaklida ifodalanadi va mustahkamlanadi. Demak, V.N.Teliya; "Lingvokulturologiya insondagi, asosiy madaniy omilni tadqiq etadi, asosiy e'tibori tilda izohlanadigan madaniy dalillarga, madaniyat fenomeni bo'lgan

inson to'g'risidagi antropologik paradigмага xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir" degan edi. [Телия В.Н.,1996:] Lingvokulturologiya, asosan, lisoniy birliklar, shaxs, til, madaniyat, qadriyatlarning semiotik gavdalantirish tizimi hisoblanadi. Lingvokulturologik birliklar muqobilsiz leksika, lakunalar, mifologiyalashtirilgan til birliklari, tilning parmiologik fondi, tilning frazeologik fondi, o'xshatishlar, ramz, tarixiy shaxslar, metaforalar va obrazlar tilning stilistik qatlami, nutqiy muomala, nutq etiketi, mualliflik realiyalarini o'z ichida tadqiq etadi. Har bir xalqning lingvokulturologik asosi mavjud bo'lgani kabi o'zbek xalqining ham o'ziga xos, o'zbek madaniyati belgilari mavjuddir. Masalan; atlas, shoyi, beqasaml, belbog', patir, ko'mach, sumalak, ariq, cho'l kabi so'zlarda namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, lingvokulturologiya jonli tilda har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo'lib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi hodisalarni milliy taqqoslash, o'xshatish, qiyoslash, o'ziga xos tarzda tarixiy asoslash, tilning paremiologik fondi va ulardan o'rinli foydalanish jarayonlarida shakllanib boraveradi. Lingvokulturologiyada eng muhimi, madaniy sema, madaniy fon, madaniy konsert, madaniy konnotatsiya bo'lib, ular madaniy informatsiyaning til birliklari vositasida ko'rsata olish jarayonidir. Lingvokulturologiyada nutq etiketi ham muhim. Bu muloqot jarayonida ijtimoiy va madaniy o'ziga xos nutqiy muomala qoidalari, nutq etiketi, ijtimoiy xudud, muloqotning milliy madaniy komponenti, xullas, lingvokulturologiya jonli kommunikativ jarayonlarni xalqning madaniyati va mentaliteti, ya'ni uning ongi, shuuri, ommaviy an'analari, milliy liboslari, urf-odatlar bilan bog'liq til ifodalarining qo'llanishini to'la tadqiq etadi. Bu har bir xalqda o'ziga xos tarzda talqin etiladi. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya o'n yildan ziyodroq vaqt oralig'ida o'rganilib kelinyapti. Shu vaqt oralig'ida yaratilgan asarlar tiliga murojaat qilsak, til va madaniyat tadqiqi masalalari har bir ijodkor tomonidan o'ziga xos tarzda etnografiyasi, etnolingvistikasi, tug'ilgan joyi, an'analari asosida talqin etilgan ma'naviy qiyofani ko'rsatishini ko'rishimiz mumkin.

Bu esa inson ma'naviy qiyofasini, uning tilida madaniy tarzda namoyon qilishdan iboratdir.. Aynan shuni lingvokulturologiya amalda tadqiq etadi. Lingvokulturologiya o'zbek tilshunosligi tarixida o'zining keng qamrovliligi, tematik rang-barangligi va yangiligi bilan boshqa til bo'limlaridan farqlanadi. Shundan kelib chiqib, til va madaniyat masalalarini o'rganishda sevimli iste'dodli shoiramiz Farida Afro'z ijodiga murojaat qilsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki uning she'riyati xalqona ifoda hayotiy mushohadalarga boyligi bilan ajralib turadi, zamonga hamnafasligi bilan, voqelikka munosabat bildirishida so'zlarning jimjimadorligiga emas, uyg'unligiga va mentalitetga, xalqning jonli tili, nutqiy faoliyatiga, frazeologik birliklarga, maqol va matallarga ijtimoiy turmush tarziga e'tibor qaratganida namoyon bo'ladi.. Masalan;

Men qo'rqaman, "do'stman" deganlar  
Xilvatlarda ko'zim o'yadi.  
Yana qaytib kelguningizcha  
Ajdaholar yutib qo'yadi.

Ushbu misralarda Farida Afro'z frazeologizm va metaforadan o'rinli foydalangan, do'stman deganlar, ko'zim o'yadi, ajdaholar yutib qo'yadi kabi...

Bizni sog'inganga tilaymiz  
to'zim  
Va bir tong yelarmiz shabboda  
bo'lib  
Tomog'imda bo'zim, tirnoqda



bo‘zim  
Dardlar ham sitilgay bir kurtak  
bo‘lib.

Farida Afro‘z she‘riyatida ana shunday ifodalar o‘z o‘rnida asosli izohini topgan. Shoir, bu o‘rinda; bir tong yelarmiz, shabboda bo‘lib, tomog‘imda bo‘zim, tirnoqda bo‘zim, dardlar ham sitilgay, bir kurtak bo‘lib deydi.

E‘tibor beraylik, Farida Afro‘z oddiy so‘zlarga murojaat etib, ularni bir-biriga bog‘lagan holda poetik olamni paydo qiladi va uning ijodiy mahorati o‘ziga xos tarzda izohlanadi, qo‘llagan leksikasi orqali til va madaniyat masalalari asosli tarzda ifodalangan, deb o‘ylayman.

Endi kelma men yig‘lab bo‘ldim  
Ko‘z yoshlarim bir daryo bo‘ldi  
Bu daryodan o‘tolmaysan sen  
Gunohlaring bir dunyo bo‘ldi  
Endi ko‘ndim, qaytmayman aslo  
Men yashayman mag‘rur egmay bosh  
Eslamayman unutmog‘im rost  
Zamin to‘xtab so‘nguncha quyosh.

Farida Afro‘zning “Endi kelma” she‘rida lingvokulturologiya oddiy leksika orqali poetik tarzda lirik qahramon alamini “ko‘z yoshlarim bir daryo bo‘ldi”, “bu daryodan o‘tolmaysan, sen”, “gunohlaring bir dunyo bo‘ldi”, “yashayman”, “mag‘rur, egmay bosh”, “eslamaymam”, “zamin to‘xtab, so‘nguncha quyosh” kabi so‘zlar orqali xalqimiz diliga yaqin ifodalar; so‘z, mualliflik realiyalari, bilan badiiy asoslangan. Har bir oddiy iboralar qalbga to‘g‘ri kirib bora oladiganday tuyuladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, lingvokulturologiya o‘zbek tilshunosligida hamon yangi, dolzarb mavzu bo‘lib, ijodkorlarning asarlari tili leksikasini o‘rganish jarayonida, keng tadqiq va tahlil qilinmoqda. Bu esa davrimiz yoshlarini tilimizga, tariximizga, xalqimizning etnik madaniyatiga, til va madaniyat tadqiqi masalalariga e‘tiborli bo‘lishga chorlaydi. Lingvokulturologiya, til va madaniyat tadqiqi masalalari har bir ijodkor tilida o‘ziga xos tarzda o‘z ifodasini topgan. Shunday ekan, Farida Afro‘z she‘riyatida til va madaniyat masalalari tilimizda mavjud bo‘lgan leksika orqali mualliflik realiyalari asosida shoirona mohirlik bilan yoritilgan.

Sharaflar, olqishlar, unvon mukofot,  
Kimlardir sen uchun bo‘lgandir fido  
Har qilmish sababi o‘zingsan, o‘zing,  
Kimsan, bugun  
Sen,  
Shohmisan, gado

Shoir Farida Afro‘zning ushbu misralari yuqorida ta‘kidlaganimizdek, o‘ziga xos tarzda oddiy leksikani takror qo‘llashi [o‘zingsan o‘zing], yoki tazod shaklida ifodalashi [shohmisan, gado] lingvokulturologik xususiyatni mohirlik bilan ifodalaganini ko‘rsatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маслова В. А. Лингвокультуроология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. –М., 2001.

2. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: Становление антропологической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – 2001.
3. Sulevmanov, D., Gatiatullin, A., Prokopyev, N., & Abdurakhmonova, N. (2020, November). Turkic morpheme web portal as a platform for turkology research. In 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-5). IEEE.
4. Abduraxmonova, N., & Abduvaxobov, G. I. (2021). O‘quv lug‘atini tuzishning nazariy metodologik asoslari. СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ, 103.
5. Mengliev, D., Barakhnin, V., Eshkulov, M., Palvanov, B., Abdurakhmonova, N., & Khamraeva, S. (2023, September). Dictionary-based medical text analysis in Uzbek: overcoming the low-resource challenge. In 2023 IEEE Ural-Siberian Conference on Computational Technologies in Cognitive Science, Genomics and Biomedicine (CSGB) (pp. 85-89). IEEE.
6. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996.
7. Usmanova Sh. “LINGVOKULTUROLOGIYA”, 2014.
8. Farida Afro‘z. O‘sha kun bugundir, 1-jild, 2013.